

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA SOLFEDJIO FANINI
O'QITISHNING AYRIM MUAMMOLARIGA BIR NAZAR**

Bafoyev Nodirshoh Sattorovich

Buxoro Davlat Universiteti

"San'atshunoslik" fakulteti

"Musiqa ijrochiligi va madaniyat"

kafedrasi o'qituvchisi

Annatotsiya: *Ushbu maqolada biz bevosita solfedjio fanining aslida bolalar musiqa maktablarida qanday qay sharoitda o'tilishi va uning ayni kimlar tomonida o'qitilishi lozimligi haqidagi muammolarga to'xtalib o'tamiz.*

Аннотация: В этой статье мы коснемся непосредственно проблем того, в каких условиях предмет сольфеджио фактически проходит в детских музыкальных школах и на чьей стороне он должен преподаваться.

Annotation: In this article we will touch directly on the problems of what conditions the subject of solfeggio actually takes place in children's music schools and on whose side it should be taught.

Klait so'zlar: *musiqa, solfedjio, BMSM, dars taqsimoti, notalar, nota cho'zimlari, metro-ritm xususiyatlari*

Musiqa tarbiyasi haqida fikr yuritar ekanmiz, birinchi navbatda musiqaning bolalar tomonidan qanday qabul qilinishi, idrok etilishi bizni qiziqtirgan eng muhim masala bo'lib turadi. O'quvchi yoshlarni badiiy-estetik tarbiyalashda, ularning ma'naviy jihatdan yetuk va barkamol inson bo'lib yetishishlarida musiqa tarbiyasining ahamiyati juda katta ekanligi hozirgi kunga kelib tobora ko'proq namoyon bo'lib bormoqda. Inson kamoloti haqida gapirganda, albatta, bu maqsadga musiqa san'atini qo'shmasdan hech iloj yo'q. Bu borada fikr yuritadigan bo'lsak, quyidagilarni aytishimiz mumkin:

Musiqa:

- a) o'z tabiatiga ko'ra hissiy va ruhiy kechinmalar uyg'otuvchi;
- b) kishilarda nozik didini uyg'otuvchi;
- c) tinglovchini ham, ijrochini ham nafosatga, ma'naviy barkamollikka undovchi vosita hisoblanadi.

Qisqacha qilib aytganda musiqa kishi kamolotida muhim rol o'ynaydi. Musiqa haqida buyuk mutafakkir Abu Nasr al-Farobiy shunday fikr yuritadi: "Bu fan (ya'ni musiqa fani) shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l atvori muvozanatini yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir".

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" gi qonuni (1997-yil), "Kadrlar tayyorlash mulliy dasturi" (1997-yil) da davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta'lifning ustuvor deb e'lon qilinishi musiqa madaniyati, musiqa pedagogikasi zimmasiga juda katta ma'suliyat bilan bir qatorda imkoniyatlarni ham yuklab qo'ydi. Yurtimizda musiqa fani maktabgacha ta'lif muassasalaridan tortib to o'rta maktablardi 8-sinf gacha o'tiladi. Undan tashqari musiqaga iqtidori bo'lgan bolalar uchun hududlarda tashkil etilgan bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa fani chuqurroq o'rgatiladi. Xususan, 1996-yil 31-dekabrdagi "Respublikada musiqiy ta'lifni rivojlantirish, madaniyat va san'at o'quv muassasalarining ish samaradorligini oshirish haqida" gi hamda 2008-yil 28-iyuldagagi "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik ba'zasini mustahkamlash va ularning ish faoliyatlari samaradorligini oshirish bo'yich 2009-2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi haqida" gi kabi farmonlar yurtimizda musiqaga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'quvchilar musiqa asboblarida mustaqil ijro etish, kuylash, rassomchilik, xoreografiya va qo'shimcha ravishda musiqa nazariyasi, solfedjio va musiqa adabiyoti fanlari bo'yicha tahsil oladilar. Biz mana shu musiqiy-nazariy fan hisoblangan solfedjio faniga biroz to'xtalamiz.

Musiqa maktablariga hozirgi kunda, ayniqsa, chekka hududlardagi maktablarga malakali, musiqa ilmini yaxshi biluvchi kadrlar zarur. Bolalar bilan musiqa nazariyasi bilan ishslash - bu anchayin qiyin masala, ayniqsa, musiqa maktablaridagi solfedjio fani ko'pchilik o'qituvchilar uchun bir qancha muammolar tug'diradi. Ayrim maktablarda kadr yetishmaslidan bu fan qo'shimcha soat sifatida mutaxassisligi ushbu fandan yiroq bo'lgan o'qituvchilarga beriladi, qarabsizki, u o'qituvchi bu fanga o'quvchini qiziqtira olmay, bolani zeriktirib, fanga nisbatan qiziqishini so'ndirib yuboradi. Ayrim maktablarda esa kadr bor, ammo u ham bola bilan ishslash usulini bilmasdan, faqat konseptlar (aslida bu fan amaliy fan bo'lib, birinchi navbatda o'quvchini eshitish qobiliyati va intonatsiyalarini yaxshi rivojlantirishga qaratilgan fan hisoblanadi.) yozdirib bolani anchayin zeriktirib qo'yadi. Bolaning esa darsdagi davomatlari ko'p hollarda sustlashib ketadi.

Avvalambor, o'qituvchidan bolalarni fanga qiziqtirish uchun psixologik yondashuv kerak bo'ladi. Masalan, bitta musiqa maktabiga yangi oliy ma'lumotli kadr keldi. Unga 1-sinf o'quvchilari uchun solfedjio fani berildi deylik. Bunda u dars o'tishdan oldin dars soatini rejalashtirib, bo'lib olmog'i, sinfni dars o'tishga kerakli jihozlar va adabiyotlar bilan ta'minlamog'i kerak. Bu oddiy narsalar u uchun birinchi imtihoni hali oldinda, ya'ni bolalar bilan birinchi darsi, o'sha birinchi darsdan qoldirgan taassurot bolalar ongida butun umr o'qituvchiga va fanga bo'lgan munosabatni belgilab beradi. Mavzuni tushuntirishda o'qituvchidan har xil musobaqali o'yinlarni izlab topish va o'yinda g'olib bo'lgan bolalarni rag'batlantirib borish talab etiladi. Aks holda bola 45 (68) daqiqa darsda o'tirishi qiyin bo'ladi. Ritmlar bilan ishslashda va nota cho'zimlarining sanog'ini tushuntirishda ham qarsaklar, qadamlar va partaga urish

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

o'yinlari bilan ishlash asosiy metod hisoblanadi. Uyga vazifani ham xuddi o'yin tarzida bermog'i kerak. Shunda bola, albatta, uyga vazifani bajaradi va asta-sekin u musiqa bo'yicha dastlabki ko'nikmalar – notalar, nota cho'zimlari, metro-ritm xususiyatlari, musiqiy belgilarni o'zlashtirib olganini o'zi ham sezmay qoladi. Endi o'qituvchi oldida yana bir katta mashaqqatli vazifa, ya'ni bolalarning ovoz intonatsiyasini yo'lga qo'yish turibdi. Bunda bolalarning eshitish qobiliyatini ham o'stirib borish kerak. Dastavval, o'quvchilarga tovushlarni farqlashni tushuntirish, baland va past tovushlarni anglatish zarur. Bolalar ovozi anchayin murakkab bo'lib, ulardan ayrimlarining ovozi bиринчи oktava "lya" tovushidan yuqoriga o'ta olmaydi. Ko'pchilik bolalarda esa yuqori pardalarda ham bemalol kuylash imkoniyatlari bo'ladi. Bunda bolalarni guruhga bo'lib kuylatish kerak. Bu esa asta-sekinlik bilan ko'p ovozlilikni ham tushunishida ayni muddao bo'ladi. Yuqori sinfdagi bolalarga, ayniqsa, ovozi apparatlari mutatsiyasiga kirgan o'g'il bolalarning ovoz intonatsiyasini to'g'rilashda o'qituvchidan juda ehtiyyotkorlik va mahorat talab etiladi. Ularga ko'pincha yuqori pardalarga urinislarni kamaytirib, ovozni qiyamagan holda bas tomonga yo'naltirgan ma'qul. Shunda kuylash ham osonlashadi, bu, ayniqsa, xorlarda qo'l keladi. Keyinchalik bolalarda solfedjio kuylaganda, yuqori notalarda yarim ovoz (falset) da kuylashni o'rgata borish kerak. Bu esa bolada baqirmsandan kuylagan paytda qiyalmaslik hamda o'zini eshitishni mustahkamlaydi. Eshitish qobiliyatini bolada dastlabki sinflardan rivojlantirib boriladi – osondan-murakkabga qadar bosqichma-bosqichma tarzida.

Hozirgi kunda yana bir muammo, bu solfedjio fani darsliklarining yetishmasligi va o'quvchilar bilan rus adabiyotlaridan foydalanishimiz. Bu rusiy zabon o'quvchi yoshlarimiz uchun qo'l keladi, ammo, o'zbek zabon bolalar uchun esa bular bir muncha qiyinchilik tug'dirmoqda. Yana bir jihatni ko'zda tutmoq zarur; bugungi kunda o'quvchi yoshlar milliy musiqalarimizga, folklorlarimizga bee'tiborligi anchayin achinarli hol. Shu boisdan o'zbek musiqasiga asoslangan, bolalar musiqa va san'at maktablari uchun 2016-yil nashr etilgan 1-sinfdan 5-sinfgacha bo'lgan "solfedjio" darsligi nashr etildi. Uning 6-7-sinflar uchun mo'ljallangan qismlari ham nashr etilish arafasida. Bunday turdag'i qo'llanmalar ko'paysa ayni muddao bo'lgan bo'lardi.

Mana shunday darslarni o'tish yuqorida ta'kidlaganimizdek o'qituvchidan professionallik va kuchli metodlarni talab etadi. Bu metodlarni har bir o'qituvchi sinfda o'tirgan o'quvchilar auditoriyasiga qarab ishlatishi lozim. Lekin ba'zi o'qituvchilar hech qanday metodlardan foydalanmay faqat konspekt yozdirishdan nariga o'ta olmayapti. Bolalar esa solfedjio fanini zerikarli fan(lar) qatoriga kirgizib qo'yishgan. Keyinchalik musiqa bilan shug'ullanadigan bolalar musiqa kollejlari va musiqa bilim yurtlarida ko'pgina qiyinchiliklarga ro'baro' kelmoqdalar. Shuning uchun yoshlikdan mazkur fanga bo'lgan munosabatni ijobjiy tarafga o'tkazish faqat o'qituvchilarning qo'lida. Ota-onalardan esa faqat bolaga bo'lgan nazoratni kuchaytirish talab etiladi. Zero qars ikki qo'lidan chiqadi.